

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11180619>

QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASHDA KLASTERLARNING AHAMIYATI

Saidova Gulnoza Tulkunovna

Qarshi muhandislik – iqtisodiyot instituti magistri

E-mail: gulnoz0410@gmail.com

ANNOTATSIYA

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash orqali xalq xo‘jaligi samaradorligini oshirish va hayot faoliyatini yaxshilash, agrosanoat klasterlarini shakllantirish va rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan.

***Tayanch so‘zlar:** oziq-ovqat ta‘minoti va xavfsizligi; qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, birlamchi va chuqur qayta ishlash, vertikal va gorizontal integratsiya, agrosanoat klasterlari, qayta ishlash sanoati, fermer xo‘jaligi.*

ПЕРЕРАБОТКА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ПРОДУКЦИИ ЗНАЧЕНИЕ КЛАСТЕРОВ В РАБОТЕ

Саидова Гульноза Тулкуновна –

магистр Инженерно-экономического института

Электронная почта: gulnoz0410@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются вопросы развития и совершенствования организационно-экономических механизмов агропромышленных кластеров в цепочке производства, глубокой промышленной переработки и реализации сельскохозяйственной продукции.

***Ключевые слова:** продовольственное обеспечение, продовольственная безопасность, первичная и глубокая переработка, вертикальная и горизонтальная интеграция, агропромышленный кластер, обрабатывающая промышленность, фермерское хозяйство.*

KIRISH

So‘nggi yillarda yurtimiz qishloq xo‘jaligini isloh qilish, bozor munosabatlarini keng joriy qilish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi, qayta ishlovchi va sotuvchi subyektlar o‘rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini mustahkamlash, sohaga investitsiyalar jalb etish, resurstejamkor texnologiyalarni joriy qilish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni zamonaviy texnikalar bilan ta‘minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

“O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo‘ljallangan Strategiyada mintaqaviy qishloq xo‘jaligi klasterlarini yaratish, qishloq xo‘jaligi birlashmalari, fermer va dehqon xo‘jaliklarining qayta ishlash sanoati korxonalarini bilan o‘zaro hamkorligini ta‘minlash vazifalari belgilangan.¹

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, shu jumladan, meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlashni yo‘lga qo‘yish orqali ishlab chiqaruvchi (fermer xo‘jaligi) uchun qo‘shimcha barqaror daromad manbai yaratiladi. Mahsulotni qayta ishlash orqali unga qo‘shimcha qiymat qo‘shiladi, ya‘ni mahsulotning qiymati ortib boradi.

Mahsulotni qayta ishlash darajasi turlicha, ya‘ni dastlabki qayta ishlash yoki chuqur qayta ishlash bo‘lishi mumkin. Dastlabki qayta ishlashga quritish kabi oddiy amaliyotlar kirsa, chuqur qayta ishlash mahsulotga bir necha bosqichlarda ishlov berish, ya‘ni konsyervatsiya qilish, sharbat olish, qadoqlash kabi amaliyotlarni o‘z ichiga oladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Tadqiqotlarga ko‘ra klasterlar, jumladan agrosanoat klasterlarini nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etish yuzasidan bir qator xorijlik va mamlakatimiz olimlari ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Dastavval “klaster” tushunchasining iqtisodiy mazmuniga to‘xtalib o‘tsak. Ilmiy adabiyotlarni o‘rganish bu borada turli yondashuvlar mavjudligini ko‘rsatadi. Vikipediya ko‘ra “klaster” atamasi (ingliz tilidan cluster - to‘planish, guruh, dasta) ma‘lum xususiyatlarga ega hamda mustaqil birlik sifatida qarash mumkin bo‘lgan bir xil tushdagi bir nechta elementlarning yagona maqsad yo‘lida birlashuvi, to‘planishi hamda guruh ma‘nolarida ishlatiladi. Qayta ishlashni yo‘lga qo‘yishni

¹ “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 23.10.2019 yildagi PF-5853-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.

rejalashtirgan xo‘jalik yoki tadbirkorlar, avvalo, o‘z atrofida xomashyo bazasining yetarli bo‘lishiga va mavjud xomashyo hajmidan kelib chiqqan holda xarid qilib, o‘rnatiladigan qayta ishlash uskunasining quvvatini to‘g‘ri tanlanishiga e‘tibor qaratishlari lozim bo‘ladi.

L.S.Markovning fikricha “klaster deganda yagona texnologik jarayonga birlashgan xilma-xil iqtisodiy tizimlarning keng guruhi tushuniladi.¹ M.Yusupovga ko‘ra “klaster deganda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash, saqlash va sotish texnologik tizimida o‘zaro uyushgan holda faoliyat olib boruvchi fermer va dehqon xo‘jaliklari, qayta ishlash sanoati korxonalarini, saqlash, logistika va sotish infratuzilmalarining yagona maqsad yo‘lida birlashgan tuzilmasini anglatadi”.²

Mazkur nazariy ta‘riflarni umumlashtirib, bizningcha agrosanoat klasteri – geografik jihatdan bir (tutash) hududda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash, dastlabki va chuqur qayta ishlash, sotish hamda ishlab chiqarishga xizmat ko‘rsatish texnologik jarayonlarini yagona zanjirga birlashtirish orqali yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan xo‘jalik yuritish subyektlarining hamkorlikdagi birlashmasi, degan fikrdamiz.

Tadqiqot metodologiyasi

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va sanoat ko‘lamida chuqur qayta ishlash zanjirida agrosanoat klasterlarini rivojlantirish sohasida tadqiqotlar olib borgan olimlarning ilmiy ishlari mazkur tadqiqotning nazariy-uslubiy asoslarini tashkil etadi. Tadqiqotda abstrakt va analitik mushohada, normativ va pozitiv tahlil, qiyosiy va omilli tahlil, dinamik qatorlar, iqtisodiy-statistik va boshqa usullardan foydalanilgan.

¹ Марков Л.С. Теоретико-методологические основы кластерного подхода. Монография. – Новосибирск: ИЭОПП СО РАН, 2015. – С. 6

² Yusupov M.S. Agrosanoat integratsiyasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: Innovatsion texnologiyalar, 2015.

Tahlil va natijalar

Mahsulotlar	Jami ishlab chiqarish,tonna	Shu jumladan dehqon xo‘jaligida ,tonna	Qayta ishlash, tonna		Qayta ishlash, %	
			Jami qayta ishlash	shu jumladan dehqon xo‘jaligida	Jami qayta ishlash	shu jumladan dehqon xo‘jaligida
2021 yil						
Gusht	180269	171127	11200	7865	6	5
Sut	1248399	1197430	133579	88000	11	7
Sabzavotlar	504988	372303	12940	8413	3	2
Mevalar	172334	74761	73936	30821	43	41
Uzum	100579	56317	4120	0	4	0
2022 yil						
Gusht	183132	174945	10808	7563	6	5
Sut	1277622	1230460	130805	85667	11	7
Sabzavotlar	518289	381991	11517	8340	2	3
Mevalar	167341	75830	27183	11758	15	15
Uzum	105149	57903	7792	0	7	0
2023 yil						
Gusht	188998	179189	11749	8278	6	5
Sut	1306827	1254149	141152	92331	11	7
Sabzavotlar	559265	379460	12458	8717	2	3
Mevalar	177777	71439	29018	11517	15	15
Uzum	110013	55295	1473	0	1	0

1-jadval

Qashqadaryo viloyatida qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash darajasi

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki Qashqadaryo viloyatida 2021-yilda go‘sht mahsulotlari jami 180269 ming tonna ishlab chiqarilgan bo‘lsa, shundan jami 11200 ming tonnasi qayta ishlangan. 2022-yilda 183132 ming tonna ishlab chiqarilgan, 10808 ming tonnasi qayta ishlangan. 2023-yilda esa 188998 ming tonna go‘sht mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 11749 ming tonna mahsulot qayta ishlangan.

Sut mahsulotlari esa 2021-yilda 1248399 ming tonna ishlab chiqarilgan, jami 133579 ming tonnasi qayta ishlangan. 2022-yilda 1277622 ming tonna ishlab chiqarilgan 10808 ming tonnasi qayta ishlangan. 2023-yilda esa bu ko‘rsatkich sezilarli darajada oshgan. 1306827 ming tonna sut ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 141152 ming tonnasi qayta ishlangan.

2023-yilda 86,3 trillion so‘mlik oziq-ovqat sanoati mahsulotlarini mahsulot ishlab chiqarildi va belgilangan reja 105,9 foizga bajarildi. Respublikada ro‘yxatdan o‘tgan oziq-ovqat korxonalarini soni 28,7 ming ta, shundan 16,5 ming tasi faoliyat


yuritmoqda, 9,5 ming tasi faoliyati to‘xtagan, 2 714 ta yangi tashkil etilgan, 1 074 tasi tugatilgan.

Faoliyat yuritayotgan 16,5 ming ta korxonalaridan 1,2 ming tasi meva-sabzavotni 1,3 ming tasi sutni, 668 tasi go‘shetni qayta ishlash va 13,4 ming tasi boshqa turdagi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar toifasiga to‘g‘ri keladi. Amalga oshirilgan tizimli ishlar natijasida, 2023-yilda 8,4 million tonna don ekinlari, 11,6 million tonna sabzavot, 3,6 million tonna kartoshka, 2,6 million tonna poliz, 3,1 million tonna meva, 1,7 million tonna uzum yetishtirildi.

Aholini asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, xususan, go‘shet, sut, tuxum, baliq va asal mahsulotlari bilan ta‘minlashni ko‘paytirish maqsadida 2,8 million tonna go‘shet (tirik vaznda), 12 million tonna sut, 0,2 million tonna baliq, 8,5 milliard dona tuxum yetishtirildi.

Meva-sabzavotni qayta ishlash quvvatlari 3 065 ming tn dan 3 250 ming tn (+185 ming tn), go‘shetni qayta ishlash quvvatlari 427 ming tn dan 458 ming tn (+31 ming tn), sutni qayta ishlash quvvatlari 2 760 ming tn dan 3 100 ming tn(+340 ming tn) yetkazildi.

Klasterlar tomonidan sohaga 510 mln.dollar investitsiya jalb qilinib, paxtani qayta ishlash 65 foizga (2022-yilga nisbatan 832 ming tn yoki 123 foizga oshgan), g‘allani qayta ishlash 38 foizga (105 tn yoki 102 foizga), meva-sabzavotni qayta ishlash 92 foizga (110 ming tn yoki 111 foizga) yetkazilgan.¹



1-rasm. Qashqadaryo viloyatida klasterlar soni, birlik.

Qashqadaryo viloyatida paxta – to‘qimachilik klasterlarining soni 19 tani tashkil qilgan bulib, shundan, faqat 9-tasi ip-kalava , mato, tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqaradi. Bu O‘zbekiston iqtisodiyotiga klasterlarning kirib kelishining

¹ <https://www.agro.uz>

dastlabki ko‘rinishlari xalos. 2017 yildan buyon agrar sohada klasterlarni rivojlantirishning huquqiy asoslari yaratilgan. Ammo xorijiy va mahalliy investorlarning bu yo‘nalishga kirib kelish sekin kechdi. 2021-2022 yillardan boshlab klasterlar qayta ishlash sohalarini o‘z o‘rniga quyishni boshladi.

Xulosa va takliflar

Bizningcha klaster bilan unga xomashyo yetkazib beruvchi fermer xo‘jaliklari o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar shartnomalar asosida yo‘lga qo‘yilishi maqsadga muvofiq. Bu jarayonda klaster tomonidan fermer xo‘jaliklariga yetkazib beriladigan moddiy resurslar hamda ko‘rsatiladigan xizmatlar, shuningdek fermer xo‘jaliklaridan xarid qilinadigan xomashyoga narx belgilash birinchi o‘ringa chiqadi. Albatta mahsulot yoki xizmatni yetishtirib (yetkazib) berish muddati, uning sifati ham juda muhim masalalardan hisoblanadi. Demak shartnomalar mahsulotni (moddiy resurslarni, xizmatlarni) o‘z vaqtida yetkazib berish muddati, ularning sifati va narxini barcha uchun maqbul tarzda inobatga olgan holda tuzilishi va amalga oshirilishi juda muhim masala sanaladi. Meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish va bir vaqtning o‘zida qayta ishlash bilan shug‘ullanuvchi ishlab chiqarish majmualari, xoldinglar, klasterlar va ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari faoliyatini kengaytirish.

Fikrimizcha qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi dehqon va fermer xo‘jaliklari va qayta ishlash klasterlari o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar o‘zaro teng huquqlilik va manfaatdorlik asosida olib borilishi hamda quyidagi shartlarga muvofiq kelishi maqsadga muvofiq: klasterlarga a‘zolik va qaysi klasterni tanlash masalasini dehqon va fermer xo‘jaligi mustaqil hal etishi; bitta hududda bitta klasterning monopol mavqega ega bo‘lishiga aslo yo‘l qo‘ymaslik.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, yuqorida ta’kidlangan fikrlar, taklif hamda tavsiyalarimiz iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida meva-sabzavotchilik tizimini rivojlantirishda klaster tizimini yanada takomillashishi uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 23.10.2019 yildagi PF-5853-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.
2. Марков Л.С. Теоретико-методологические основы кластерного подхода. Монография. – Новосибирск: ИЭОПП СО РАН, 2015. – С. 6
3. Yusupov M.S. Agrosanoat integratsiyasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: Innovatsion texnologiyalar, 2015.
4. <https://www.agro.uz>